



_____ hokimligi
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ maktabgacha va
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
__-umumiy o'rta ta'lim maktabi
tasviriy san'at fani o'qituvchisi

_____ning
20__-20__-o'quv yiliga 5-sinflar uchun
I chorak

DARS
ISHLANMALARI

“TASDIQLAYMAN”

O‘IBDO‘ _____

20__-20__-o‘quv yili uchun tuzilgan tasviriy san’at fanidan I chorak
taqvimiy mavzu rejasi

№	Mavzu nomi	Soat	Sana	Izoh
I chorak				
1.	“Mening yurtim” mavzusida badiiy shriftlar asosida kompozitsiya ishlash	1		
2.	“Mening yurtim” mavzusida tashrif qog‘ozi kompozitsiyasini ishlash	1		
3.	Tasviriy san’atning turlari	1		
4.	Tasviriy san’atning janrlari	1		
5.	Inson gavdasini nisbatlar asosida chizish	1		
6.	Inson gavdasi haykalchasini yasash	1		
7.	Men sevgan qahramon	1		
8.	BSB- 1 (25 ball) Amaliy ish	1		
9.	Sharq miniatura san’ati	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: “Mening yurtim” mavzusida badiiy shriftlar asosida kompozitsiya ishlash.

Ta’limiy maqsad: tasviriy san’atning ifodaviy vositalari haqida umumiy tushuncha berish.

Tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarga ahloqiy tarbiya berish va tasviriy san’atga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otish, tasviriy san’atning ifodaviy vositalari sifatida rangtasvirda rang, surtma, chiziq, rang dog‘lari, rangdor va yorug‘lik kontrastlari haqida tushuncha berish, grafikada chiziq, shtrix, kontur, tus, oq-qora dog‘lardan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: chizish ko‘nikmava malakasini rivojlantirish, o‘quvchilarning badiiy ijodiy qobiliyatlari, badiiy - estetik didlarini o‘stirish, tasviriy malakalarini va mantiqiy fikrlash qobiliyatini oshirish.

Dars metodi: tushuntirish, savol-javob, suhbat, amaliy, yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

Jihozi: darslik, tasviriy san’at mavzuga doir ko‘rgazmalar, rasmlar, qalamlar, proyektor, tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar.

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Kommunikativ kompetensiya:

jamo bilan ishlashda uning fikrini qo‘llab-quvvatlash.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

axborot manbalaridan (audio-video yozuv, kompyuter) foydalanish.

I. Tashkiliy qism: dars uchun yetarli miqdorda zarur ashyolar hozirlanadi.

Doskaga dars mavzusi va tegishli ma’lumotlar yozib qo‘yiladi.

II. Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

Tasviriy san’at fanida grafikaning badiiy bezak turi alohida o‘rinni egallaydi. Grafika turlarining asosiy elementi harflar - shriftlar hisoblanadi. Harflar badiiy, me’yoriy, yozma, bosma, soyali kabi turlari bilan grafik kompozitsiyalarda keng qo‘llaniladi. Harflarning chiroyli va qiziqarli shriftlarda yozilishini eramizdan avvalgi va bizgacha yetib kelgan qadimiy kitoblarda ko‘rishimiz mumkin. Kitobni bezash va unga chiroyli yozish uslubi dunyoning barcha xalqlari madaniyatida o‘ziga xos uslubda amalga oshirilgan. Bugungi kunga kelib, kitob grafikasi asosida plakat, e’lon, afishalar, devoriy ko‘rgazma va gazetalar, tabriknoma, taklifnomalar hamda grafikaning zamonaviy turlari bo‘lgan tashrif qog‘ozi, reklama qog‘ozlar, flayerlarni ishlab chiqarish rivojlanib kelmoqda. Shrift - nemischa so‘z bo‘lib, “schrift, schreiben” - “yozish” degan ma’noni bildiradi. Badiiy shriftlarni kompozitsiya asosida turli ko‘rinishda va turli usullarda yozish mumkin. Shriftlar og‘ma, to‘g‘ri, soyali, hajmli, 3D va shu kabi turli ko‘rinishda yozilgan bo‘lishi mumkin.

A B D E F G H I	A B D E F G H I
J K L M N O P Q	J K L M N O P
R S T U V X Y Z	R S T U V X Y
O' G' Sh Ch ng '	O' G' Sh Ch ng '



Matbuot va ommaviy axborot vositalarining barcha yo‘nalishlarida badiiy shriftlarning turli xil ko‘rinishlaridan foydalaniladi. Hozirgi kunda butun dunyoda harflarga badiiy bezak berishning kalligrafiya, lettering usuli juda ko‘p qo‘llaniladi.

Lettering - inglizcha “letter” so‘zidan olingan bo‘lib, “had”, “belgi” degan ma‘nolarni anglatadi. Letteringda harflar badiiy shriftlarga aylantirib yoziladi. Bunda harflarning bezagini istalgan ko‘rinishda yaratish mumkin.

Ta‘lim jarayonida badiiy bezak san‘ati asosida taklifnoma, tashrif qog‘ozi, tabriknoma, emblemalar kompozitsiyasi va devoriy gazeta, bolalar uchun turli badiiy asarlar, ertak kitoblarni yaratishda ham bezak elementi sifatida shriftlardan foydalaniladi. Demak, shriftlarning to‘g‘ri tanlanishi tabriknoma, taklifnoma va tashrif qog‘ozining ko‘rinishi qiziqarli va chiroyli chiqishiga yordam beradi.

III. Mustahkamlash:

1. Badiiy shriftlar tasviriy san‘atning qaysi turiga kiradi?
2. “Shrift” so‘zi qanday ma‘noni bildiradi?
3. Dars davomida qanday badiiy shriftlarni o‘rgandingiz?

IV. Baholash: o‘quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muxokama qilish, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘batlantirish.

V. Uyga vazifa: Turli shaklga ega bo‘lgan badiiy harflar va ularning elementlaridan “Mening yurtim” mavzusida kompozitsiya yarating.

O‘IBDO‘: _____ (imzo) _____ (sana)

veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o'zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi

5-sinf tasviriy san'at fanidan I chorak konspektini to'loq holda olish uchun telegramdan yozing.




Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To'lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

OMONATGA

HIYONAT QILMANG.

Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!
Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**